XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar VII-6-8-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 28 iyundagi “Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-106-69-7-92-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2024-yil 23-dekabrdagi 20/1127-sonli bildirish xati, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 23-dekabrdagi 2/06-38/756-sonli xulosa xatiga asosan xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Oqdaryo tuman Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-106-69-7-92-K/24-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Oqdaryo tuman Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-106-69-7-92-K/24-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Oqdaryo tuman Kengashining 2024-yil 28-iyundagi “Xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-106-69-7-92-K/24-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Oqdaryo tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Oqdaryo tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Ismoilov) tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin. Shuningdek, mahalliy byudjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Rabbanaqulov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov)ga yuklatilsin.

Kengash raisi

QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-8-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**94 804 045,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 155 200,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	16 762 500,0
3	Aksiz solig‘i, jami	7 810 800,0
	shu jumladan: *- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i*	7 810 800,*0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 976 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	13 423 700,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	8 300 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 891 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 847 600,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	997 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 649 641,0
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	360 000,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	99 404,0

13	Yig‘imlar	1 531 200,0
14	Davlat mulki obyektlarini sotishdan olingan daromadlar tushum	0

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-8-7-92-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**209 811 036,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	46 429 247,0
2	Tibbiyot birlashmasi	80 584 491,0
3	Madaniyat bo‘limi	7 285 600,0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	8 424 654,0
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 721 052,0
6	Suv yetkazib berish xizmati	1 696 523,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 255 720,0
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 490 024,0
9	Soliq inspeksiyasi	4 258 353,0
10	Tuman hokimligi	50 665 372,0

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-8-7-92-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

T/r	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**1 756 101**	**-1 756 101**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-242 988
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	153 602	0
3.	Madaniyat bo‘limi	0	-222 478
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	515 103	0
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	320 637	0
6.	Irrigatsiya bo‘limi	0	0
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	358 682	0
8.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0	-963 516
9.	Soliq inspeksiyasi	0	-327 119
10.	Tuman hokimligi	408 077	0